O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OSIYO
TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FANLARINING DOLZARB MASALALARI

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman MATERIALLARI



Qarshi - 2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OSIYO TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI



FILOLOGIYA FANLARINING DOLZARB MASALALARI

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari 2026-yil 17 – 18-aprel

QARSHI – 2026

УУК 801.8
ББК -ВВК - 80/82 F- 62

“Filologiya fanlarining dolzarb masalalari” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Qarshi, 2026. – 554 bet.

Mazkur maqolalar to‘plamida jamlangan ilmiy ishlar zamonaviy filologiya fanining dolzarb yo‘nalishlari, tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida olib borilayotgan tadqiqotlar hamda lingvistik jarayonlarni rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan. To‘plamda til taraqqiyoti, matnshunoslik, diskurs tahlili, tarjimashunoslik, zamonaviy adabiy jarayonlar, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda filologik tadqiqotlarda innovatsion yondashuvlar kabi muhim yo‘nalishlar yoritilgan.

Mualliflar tomonidan filologiya fanining turli sohalarida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning nazariy asoslari, ilg‘or xorijiy tajribalar hamda ularni milliy til va adabiyot rivoji sharoitida qo‘llash imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Mazkur to‘plam olimlar, tadqiqotchilar, o‘qituvchilar va talabalar uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

MAS’UL MUHARRIR
Xo‘jamurod Jabborov – filologiya fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI

Raxmonov L.T. – Osiyo texnologiyalar universiteti rektori
Ibragimov E.X. – Osiyo texnologiyalar universiteti Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori
Abdullayev O‘.Sh. – Osiyo texnologiyalar universiteti Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti boshlig‘i
Hamidov X.X. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Turdibekov M. T. – Renessans ta’lim universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Madaliyev Ya. X. – M.Auezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston universiteti professori, filologiya fanlari doktori
G’aniyev I.M. – filologiya fanlari doktori, professor
Qurbanova A. N – Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti katta ilmiy xodimi, turkolog, PhD, dotsent
Sheronov B. G‘. – Xo‘jand davlat universiteti o‘zbek tili va uning ta’limi metodikasi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Adinayev Sh. A. – Qirg‘iziston – O‘zbekiston xalqaro universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
Xo‘jamurodova O.X. –Osiyo texnologiyalar universiteti Tillar kafedrasi mudiri
Normamatov X. M. – Osiyo texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi
Shomurotova Ch.R. – Osiyo texnologiyalar universiteti o‘qituvchisi

Ushbu ilmiy – amaliy anjuman materiallari Osiyo texnologiyalar universiteti Ilmiy Kengashining xulosasiga muvofiq nashrga tavsiya etilgan (2026-yil 28-mart, 03-son bayonnoma)

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi, stilistik bexatoligi uchun mualliflar mas’uldir.

https://asianuniversity.uz/

kelmoqda. Maqolamizning umumiy natijasi sifatida ta'kidalsh joizki, sun'iy intellekt o'qituvchi o'rnini butunlay egallash emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytirish va o'rganuvchiga yo'l ko'rsatuvchi aqlli assistant vazifasini o'tamoqda. Kelajakda sun'iy intellekt algoritmlarining yanada takomillashishi til o'rganish jarayonini yanada intuitive, qiziqarli va natija beradigan qilishi shubhasizdir. Shunday qilib, sun'iy intellekt taqdim etayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish zamonaviy ta'lim paradigmasining asosi bo'lib, u insoniyatning intellectual salohiyatini yangi bosqichga olib chiqishga asosiy omil bo'la oladi. [8]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.McKinsey'ning global sayti (mckinsey.com). "Notes from the AI frontier: Modeling the impact of AI on the world economy" tadqiqoti. McKinsey Global Institute (MGI)
2. "Artificial Intelligence for Europe" tadqiqoti. 25-aprel, 2018-yil. rasmiy sayt (ec.europa.eu)
Washington, D.C., United States. The Pew Charitable Trusts tomonidan tashkil qilingan. 2004-yil.
3. Ergashevich, E. A. (2017). Clarification of the purpose and design of the training sessions. World Scientific News, (80), 101.
4. https://cyberleninka.ru/article/n/personalizatsiya-virtualnoyobrazovatelnoysredy.
5.https://www.nationalreview.com/2018/04/education-technologypersonalizedlearningbetter-results

ROMANDA ALLUZIYA: INTERTEKSTUAL XOTIRA VA BADIIY MA'NO HOSIL QILISH MEXANIZMLARI

Amirova Zohida Oripovna
f.f.f.d.(PhD), dotsent
Qarshi davlat universiteti
ORCID: 0009-0001-8883-6456
E-mail: zohida_oripovna@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu tezis F. Skott Fitsjeraldning "Buyuk Getsbi" romanida qo'llanilgan alluziyalarga qaratilib, ularning estetik, intertekstual va semantik ahamiyati ochib beriladi. Romanda alluziyaning intertekstual tabiatini, uning semantik-pragmatik vazifalari va badiiy matnning mazmuniy qatlamlarini chuqurlashtirishdagi rolini yoritilgam. Tadqiqotda

[8] : Google AI Learn[8], ArXiv.org (AI Papers), OpenAI Blog, MIT Technology Review (AI)

komparativ-poetik va kontekstual tahlil, narratologik kuzatuv usullari qo‘llanadi. Ilmiy yangilik alluziyaning tipologik modeli hamda o‘quvchi kompetensiyasi bilan bog‘liq talqin mexanizmlarini izohlashdan iborat.

Kalit so‘zlar: Alluziya, intertekstuallik, roman poetikasi, presuppozitsiya, semantik qatlam, o‘quvchi kompetensiyasi, badiiy kontekst

Asosiy qism. Alluziya badiiy adabiyotda keng qo‘llaniladigan stilistik vositalardan biri bo‘lib, muallif tomonidan boshqa matn, tarixiy voqea, mifologik obraz yoki madaniy fenomenlarga bilvosita ishora qilish orqali yaratiladi. Bu vosita o‘quvchidan kengroq madaniy bilim va tafakkurni talab qiladi.

Alluziya lotincha “allusio” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “ishora qilish” ma’nosini anglatadi. U intertekstual bog‘lanishning asosiy shakllaridan biri sifatida qaraladi. Intertekstuality nazariyasini rivojlantirgan olimlar alluziyani matnlararo dialogning muhim vositasi sifatida baholaydi.

F. Skott Fitsjeraldning mashhur “Buyuk Getsbi” romani XX asr Amerika jamiyatining murakkab ijtimoiy va axloqiy muammolarini alluziyalar orqali muallif o‘sha davr madaniyati va qadriyatlariga tanqidiy munosabat bildiradi. Masalan, romandagi “Doctor T. J. Eckleburg ko‘zlari” obrazi diniy va metafizik alluziya sifatida talqin qilinadi. Bu obraz jamiyatdagi ma’naviy bo‘shliq va nazoratning yo‘qligini ifodalaydi. Bundan tashqari, Getsbi obrazining o‘zi ham Amerika orzusi (“American Dream”) ga nisbatan alluziya hisoblanadi. Uning boylik va muvaffaqiyatga erishish yo‘lidagi harakatlari ideal va real hayot o‘rtasidagi tafovutni ochib beradi.

Romanda alluziya quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Semantik chuqurlik yaratadi
2. Obrazlarning ko‘p qatlamli talqinini ta’minlaydi
3. Muallifning ijtimoiy tanqidini kuchaytiradi
4. O‘quvchini faol interpretatsiyaga undaydi

Roman janri o‘zining ko‘pqatlamli tabiati, makon-zamon va ovozlar polifoniyasi, ijtimoiy-ma’naviy tajribani keng ko‘lamda umumlashtirish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Shu ko‘pqatlamlilik ichida alluziya alohida poetik hodisa sifatida ko‘rinadi: u bevosita iqtibosdan farqli ravishda, boshqa matn, mif, tarixiy voqea, madaniy kod yoki adabiy an’anaga ishora qilish orqali badiiy ma’noni yashirin yoki yarim ochiq shaklda ko‘paytirdi. Alluziya romanda “xotira mexanizmi” sifatida ishlaydi: muallif birgina ishora bilan o‘quvchi ongida oldingi matnlar va ularning baholovchi konnotatsiyalarini uyg‘otadi, natijada hozirgi syujet va obrazlar tizimi kengroq ma’no maydoniga ulandi. Bu jarayon, avvalo, intertekstuallik nazariyasining asosiy g‘oyalariga tayanadi: badiiy matn yakka va yopiqligicha mavjud bo‘lmaydi, u doim boshqa matnlar bilan munosabatda, ularga javob, e’tiroz yoki davom sifatida yashaydi [4]. Roman alluziyasi aynan shu “munosabat”ning estetik shakllaridan biridir.

Alluziyani roman poetikasida mustaqil tahlil birligi sifatida ko‘rish uchun uni yaqin hodisalardan ajratish lozim. Iqtibos odatda aniq ko‘chirish va belgilanadigan manbaga ega bo‘lsa, reministsensiya ko‘proq beixtiyor yoki tarqoq o‘xshashlikni bildiradi; alluziya esa muallif tomonidan maqsadli tashkil etilgan ishora bo‘lib, u ko‘pincha tanish motiv, obraz, ibora, situatsiya yoki kompozitsion modelni qayta faollashtiradi. Bunda alluziya ikki tomonlama tuzilishga ega: birinchi qatlamda romanning ichki voqelik tizimi ishlaydi, ikkinchi qatlamda esa “chaqirilgan” tashqi matn yoki madaniy kontekst mavjud bo‘ladi. O‘quvchi shu ikki qatlamni birlashtira olgan darajada alluziyaning estetik effekti yuzaga chiqadi. Demak, alluziya faqat muallif niyatining mahsuli emas, balki o‘quvchining madaniy va adabiy kompetensiyasi bilan yakunlanadigan hamkorlik jarayonidir. Bu nuqtada alluziya presuppozitsiya hodisasi bilan tutashadi: muallif o‘quvchi biladi deb taxmin qilgan ma’lumotga suyanadi, shu taxmin oqlanganda matn “ochiladi”, oqlanmaganda esa alluziya sathida semantik yo‘qotish yuz beradi. Roman janrida o‘quvchiga qo‘yilgan bunday talablilik ko‘pincha asarning intellektual darajasini belgilaydi.

Alluziyaning ma’no hosil qilish mexanizmi bir necha asosiy yo‘nalishda ko‘rinadi. Birinchisi, baholovchi semantika yaratishdir: muallif ma’lum klassik obraz yoki voqeaga ishora qilib, qahramonning axloqiy qiyofasini izohlamasdan turib baholaydi. Masalan, “Don Kixot” tipidagi ishora romantik idealizm va haqiqat bilan to‘qnashuv konnotatsiyalarini chaqiradi; “Hamlet” tipidagi ishora esa ikkilanish, ichki monolog, kechikkan qaror semantikasini faollashtiradi. Bunday hollarda alluziya o‘quvchini tayyor izohdan ko‘ra murakkabroq talqinga undaydi, obrazga nisbatan bir vaqtning o‘zida ham kulgi, ham hamdardlik, ham tanqid ohanglarini qo‘shib yuborishi mumkin. Ikkinchisi, kompozitsion parallelizm va syujet modeli yaratishdir: roman syujeti ma’lum arxetipik “yo‘l”, “imtihon”, “qaytish” sxemalariga ishora qilib quriladi; ishora to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilmasa ham, epizodlar ketma-ketligi o‘quvchida tanish strukturani uyg‘otadi. Uchinchi yo‘nalish, uslubiy polifoniya va til qatlamlarini boyitishdir: alluziya badiiy nutqqa kitobiy, folklor, afsonaviy, tarixiy yoki ilmiy diskurs elementlarini olib kirib, roman tilini ko‘povozli qiladi [3]. Shu ko‘povozlilik roman tabiatiga uyg‘un bo‘lib, muallif pozitsiyasini ham bevosita, ham bilvosita ifodalash imkonini beradi.

Alluziya tipologiyasini roman matniga tadbiq etishda uning manba doirasi va vazifaviy yo‘nalishini birgalikda hisobga olish maqsadga muvofiq. Manbaga ko‘ra alluziya adabiy (klassik yoki zamonaviy asarlarga ishora), mifologik va folklor (afsona, rivoyat, ertak motivlari), tarixiy-madaniy (shaxslar, joylar, marosimlar, an’analar), diniy-madaniy (muayyan diniy matnlarni bahsga tortmasdan, umumiy madaniy kod sifatida qaraladigan obrazlar) hamda ilmiy-falsafiy (tushuncha, atama, nazariya orqali ishora) ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Vazifasiga ko‘ra esa u ironik, parodik, elegik, fojeaviy yoki patetik ohangni kuchaytirishi, shuningdek, muallifning o‘z an’anasi bilan muloqotini tashkil etishi mumkin. Ayniqsa, parodiya va ironiyada alluziya “ikki tomonlama kod” sifatida ishlaydi: bir tomondan, u tanish matnni eslatadi, ikkinchi tomondan esa uni qayta baholaydi, masofalaydi

yoki zamonaviy kontekstga ko‘chiradi. Bunday qayta baholash jarayoni romanning zamonaviylik hissini kuchaytiradi, chunki o‘quvchi avvalgi matnlar bilan hozirgi hayot tajribasi o‘rtasida ko‘prik quradi.

Alluziyani tahlil qilish metodologiyasi masalasi romanda uning yashirinligini hisobga olishni talab etadi. Kontekstual tahlil alluziyaning minimal belgilari, ya’ni signal birliklarini aniqlashdan boshlanadi: nomlar, topomimlar, rang va predmet detalining ramziy ishlatilishi, muayyan iboraning ohangi, sintaktik konstruktsiyaning “begonaligi”, epigraf yoki bob sarlavhalaridagi nozik ishoralar shular jumlasidandir. Biroq signalni topishning o‘zi kifoya emas; alluziya o‘z vazifasini faqat romandagi semantik tugunlar bilan aloqada namoyon qiladi. Shu sababli komparativ-poetik yondashuv alluziya manbasini ehtimoliy doirada izlash, keyin esa o‘xshashlikning tasodifiymi yoki muallifning badiiy niyatimi ekanini dalillashga xizmat qiladi [1]. Bu dalillash, odatda, uch bosqichda amalga oshiriladi: birinchi bosqichda romandagi fragmentning formal va semantik xususiyatlari tavsiflanadi; ikkinchi bosqichda manba matn bilan umumiy nuqtalar ko‘rsatiladi; uchinchi bosqichda esa ayni ishora romanning g‘oyaviy-badiiy tizimida qanday yangi ma’no hosil qilayotgani izohlanadi. Narratologik yondashuv esa alluziyaning qaysi ovoz orqali berilganini ajratadi: muallif-narrator nutqimi, qahramonning ichki monologi, dialog yoki hujjatli insertsiyami. Chunki alluziya qahramon nutqida kelsa, u qahramonning intellektual darajasi, dunyoqarashi va o‘zini oqlash strategiyasini bildirishi mumkin; narrator nutqida kelsa, muallifning baholovchi masofasini sezdiradi; dialogda kelsa, obrazlar o‘rtasidagi madaniy ierarxiyani ko‘rsatadi.

Romanda alluziyaning eng muhim ilmiy jihatlaridan biri uning talqin ko‘lamini boshqarish xususiyatidir. Alluziya bir tomondan, ma’noni ko‘paytiradi, ikkinchi tomondan esa uni tartibga soladi: o‘quvchini ma’lum interpretatsion yo‘lga boshlaydi, chunki “chaqirilgan” matn yoki obraz o‘zining an’anaviy semantik yukini olib keladi. Masalan, muayyan arxetipga ishora qilgan roman qahramoni o‘quvchi tomonidan shu arxetipning kutilmalariga ko‘ra qabul qilinadi; keyin muallif shu kutilmani tasdiqlashi yoki buzishi orqali dramatik kuchlanish yaratadi. Bu jarayon “kutilma va inkor” mexanizmi sifatida roman dinamikasini oshiradi. Bunda alluziya estetik iqtisod tamoyiliga ham xizmat qiladi: muallif keng izoh talab qiladigan ma’naviy-axloqiy muammolarni qisqa ishora orqali yoritadi, matnning ritmini buzmasdan chuqur ma’no beradi. Shu bilan birga, alluziya haddan ziyod ko‘p va sun’iy bo‘lsa, roman “kodlar to‘plami”ga aylanib, hissiy ishonarlilik pasayishi ehtimoli bor; demak, alluziya me’yor masalasi ham poetik sifat ko‘rsatkichi sifatida qaralishi lozim [2].

O‘zbek romanlarida alluziya, odatda, milliy madaniy xotira bilan bog‘liq qatlamlarni faollashtirish, tarixiy tajribani individual taqdirlar fonida ko‘rsatish, an’anaviy axloqiy mezonlarni zamonaviy vaziyatga ko‘chirish kabi vazifalarda ko‘proq kuzatiladi. Bunday alluziyalar xalq og‘zaki ijodi motivlari, mumtoz adabiyotga ishoralar, urf-odat va marosim detallari orqali berilib, roman dunyosini “o‘z” va “begona” kodlar kesishmasida quradi. Shu

kesishma o‘quvchini nafaqat syujetni kuzatishga, balki madaniy ma’nolarni tiklashga undaydi. Jahon roman tajribasida esa alluziya modern va postmodern poetikada o‘ziga xos strategiyaga aylanib, muallifning “matnlararo o‘yin”i, tarixiy sitatalilik, janr va uslub parchalari bilan ishlash jarayonida yanada faollashgani ko‘rinadi [4; 5]. Shunday bo‘lsa-da, har qanday adabiy muhitda alluziyaning muvaffaqiyati muallifning estetik didi va o‘quvchi auditoriyasining tayyorgarligi bilan belgilanadi; ilmiy tahlil esa ayni shu ikki omil o‘rtasidagi muvozanatning badiiy natijasini aniqlashga qaratildi.

Xulosa. Romanda alluziya intertekstual xotiraning poetik shakli bo‘lib, u badiiy ma’noni ko‘paytirish, baholovchi konnotatsiyalarni ixcham yetkazish, syujet va obrazlar tizimini keng madaniy kontekstga ulash, shuningdek, o‘quvchini faol talqinga jalb etish vazifalarini bajardi. Alluziyani ilmiy tahlil qilishda signal birliklarini aniqlash, ehtimoliy manbani asoslash va alluziyaning romandagi semantik hamda narrativ funksiyasini ko‘rsatish zarur. “Buyuk Getsbi” romanida alluziya muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. U asarning g‘oyaviy va estetik qiymatini oshirib, kengroq ma’no qatlamlarini anglash imkonini beradi.

Alluziyaning tipologik modeli roman matnini chuqurroq talqin etish imkonini berishi, ayniqsa o‘quvchi kompetensiyasi va presuppozitsiya omili bilan bog‘liq holda, badiiy kommunikatsiyaning samaradorligini belgilashi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qo‘ng‘irov R. Adabiy tahlil asoslari. Toshkent, O‘qituvchi, 2010. 240 b.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent, Akademnashr, 2018. 320 b.
3. Baxtin M. M. Voprosy literatury i estetiki: Issledovaniya raznyx let. Moskva, Xudozhestvennaya literatura, 1975. 504 s.
4. Genett J. Palimpsesty: literatura vtoroj stepeni. Sankt-Peterburg, Izdatelstvo im. N. I. Novikova, 1998. 432 s.
5. Riffaterre M. Semiotics of Poetry. Bloomington, Indiana University Press, 1978. 220 p.
6. Hutcheon L. A Theory of Parody: The Teachings of Twentieth-Century Art Forms. New York, Methuen, 1985. 143 p.

117.	*G.R.IBRAGIMOVA BURXONOVA NOZIMAXON*	*MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI BOLALARNING RIVOJLANISHIDA MUHIM OMIL SIFATIDA*	**512**
118.	*BOZOROVA MUXLISA*	*INKLUZIV TA'LIMGA MUHTOJ BO'LGAN BOLALARDA DISKRIMINATSIYANI OLDINI OLISH VA ULARNI PSIXOLOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH*	**516**
119.	*ХУДАЙБЕРДИЕВА ХИКОЯТ КАДИРОВНА*	*КРЕАТИВНОСТЬ КАК СОВОКУПНОСТЬ ТАЛАНТОВ И ЕЁ РОЛЬ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ*	**521**
120.	*ХОЛТУРАЕВА ФЕРУЗА КАМОЛОВНА*	*ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ И СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ: ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИНОЯЗЫЧНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СРЕДСТВАМИ ПРОЕКТНОЙ ТЕХНОЛОГИИ*	**525**
121.	*KHOLTURAEVA M.O. UKTAMOVA MALIKA*	*THE RUSSIAN LANGUAGE IN THE AGE OF AITHE RUSSIAN LANGUAGE IN THE AGE OF AI*	**528**
122.	*MAMATQULOVA DINORA YUNUS QIZI*	*"MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARDAGI PSIXOLOGIK TO'SIQLARNI BARTARAF ETISHNING INNAVATSION METODLARI"*	**532**
123.	*ALIMOVA SARVINOZ SOBIROVNA ANVAROVA OMINA AKMAL QIZI*	*THE CATEGORY OF GENDER IN MODERN ENGLISH КАТЕГОРИЯ ГЕНДЕРА В СОВРЕМЕННОМ АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ INGLIZ TILIDA GENDER KATEGORIYASI*	**538**
124.	*SAMATOVA MADINA ALISHER QIZI*	*SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TIL O'RGATISH IMKONIYATLARI*	**542**
125.	*AMIROVA ZOHIDA ORIPOVNA*	*ROMANDA ALLUZIYA: INTERTEKSTUAL XOTIRA VA BADIIY MA'NO HOSIL QILISH MEXANIZMLARI*	**546**
126.	*ДИССЕРТАНТ ГУСЕЙНОВА ТЮРКАН ЭТИБАР*	*ИССЛЕДОВАНИЕ КАТЕГОРИЯ НАКЛОНЕНИЯ ГЛАГОЛА КАК СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ МОДАЛЬНОСТИ В АЗЕРБАЙДЖАНСКОМ ЯЗЫКЕ*	**551**
127.	*AYTEN YUNIS GIZI HAJIYEVA*	*ON THE PROBABILITIES OF THE RELATIONSHIP BETWEEN THE NATURE OF LANGUAGE AND THE ETHNOMENTALITY OF A PEOPLE (IN CONNECTION WITH ITS REFLECTION IN THE STRUCTURAL-TYPOLOGICAL ORDER)*	**553**
128.	*ELNURA MIRZAGALIB GIZI KARIMOVA*	*ON THE ROLE OF THE ONEIRIC CHRONOTOPE IN THE SEMANTIC ORGANIZATION OF THE EPIC POEM "THE NIBELUNGENLIED"*	**557**
129.	*SABINA IZZATLI*	*NEW MEDIA JOURNALISM AND THE TRANSFORMATION OF LANGUAGE NORMS IN CONTENT CREATION*	**560**